Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARINING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	



IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI

Alimov Fazliddin Xalimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrası mustaqil izlanuvchi
Email: falimov@sqb.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlashning nazariy va konseptual asoslari tahlil qilinadi. Iqtisodiy prognozlashning mamlakat iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Makroiqtisodiy prognozlashda qo'llaniladigan tizimli va dinamik yondashuvlar, shuningdek, mikroiqtisodiy darajada xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini prognozlashning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda keng qo'llaniladigan ekonometrik, balans, imitatsion va optimallashtirish modellarining ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida prognozlash usullaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tizim, iqtisodiy prognozlash, makroiqtisodiy prognoz, mikroiqtisodiy prognoz, iqtisodiy modellashtirish, ekonometrik model.

Abstract. This article examines the theoretical and conceptual foundations of forecasting economic systems at the macroeconomic and microeconomic levels. The role and importance of economic forecasting in the planning of national economic development are highlighted. Systemic and dynamic approaches used in macroeconomic forecasting, as well as the specific features of forecasting the activities of economic entities at the microeconomic level, are analyzed. Particular attention is paid to economic modeling methods, including econometric, balance, simulation, and optimization models. The findings of the study contribute to improving the effectiveness of economic decision-making under conditions of uncertainty.

Key words: economic system, economic forecasting, macroeconomic forecast, microeconomic forecast, economic modeling, econometric models.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и концептуальные основы прогнозирования экономических систем на макро- и микроэкономическом уровнях. Раскрывается роль экономического прогнозирования в процессе планирования социально-экономического развития страны. Рассматриваются системный и динамический подходы, применяемые в макроэкономическом прогнозировании, а также особенности прогнозирования деятельности хозяйствующих субъектов на микроэкономическом уровне. Особое внимание уделяется методам экономического моделирования, включая эконометрические, балансовые, имитационные и оптимизационные модели. Результаты исследования способствуют повышению эффективности принятия экономических решений в условиях неопределенности.

Ключевые слова: экономическая система, экономическое прогнозирование, макроэкономический прогноз, микроэкономический прогноз, экономическое моделирование, эконометрические модели.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishi globallashtirish, raqamlashtirish va bozor munosabatlarning chuqurlashuvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonlar iqtisodiy tizimlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Iqtisodiy muhitda yuz berayotgan tezkor va ko'p omilli o'zgarishlar sharoitida asoslangan qarorlar qabul qilish iqtisodiy prognozlashning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarning kelajakdagi holatini oldindan baholash davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish, strategik rejalashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.



Iqtisodiy prognozlash iqtisodiy tizimlarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon iqtisodiy tizimni turli darajalarda — makro va mikroiqtisodiy kesimlarda tahlil qilishni taqozo etadi. Makroiqtisodiy prognozlash milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasini baholashga qaratilgan bo'lsa, mikroiqtisodiy prognozlash alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar va bozorlar faoliyatining istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy prognozlash jarayonida ilmiy asoslangan konseptual yondashuvlar va modellashtirish usullaridan foydalanish prognozlarning aniqligi va ishonchligini oshiradi. Iqtisodiy modellar real jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda aks ettirib, turli rivojlanish ssenariylarini baholash imkonini yaratadi. Shu sababli, iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlashda qo'llaniladigan yondashuvlar hamda modellashtirish usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlashning konseptual yondashuvlari va modellashtirish usullarini tizimli ravishda o'rganish hamda ularning amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy tizimlarni prognozlash masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim o'rin egallab, mazkur yo'nalish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy prognozlash iqtisodiy jarayonlarning kelajakdagi holatini ilmiy asoslangan usullar orqali baholash vositasi sifatida talqin qilinadi hamda u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Makroiqtisodiy prognozlash masalalari bo'yicha klassik va zamonaviy iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, keynschilik maktabi vakillari makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini umumiy talab va davlat aralashuvi bilan bog'lab izohlagan bo'lsa, monetaristik yondashuvda pul massasi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik asosiy omil sifatida ko'riladi. Ushbu nazariy qarashlar makroiqtisodiy prognozlash modellarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [1].

Mikroiqtisodiy prognozlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa bozor mexanizmlari, talab va taklif o'zaro ta'siri, narx shakllanishi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning xatti-harakatlari asosiy tahlil obyekti sifatida qaratiladi. Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida ishlab chiqilgan mikroiqtisodiy modellar korxonalarining ishlab chiqarish hajmini, xarajatlarni va foyda darajasini prognozlashda keng qo'llaniladi. Shuningdek, institutsional yondashuv tarafdorlari iqtisodiy subyektlar faoliyatiga institutlar va tashqi muhit omillarining ta'sirini alohida ta'kidlaydilar.

Iqtisodiy prognozlashda modellashtirish usullariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ekonometrik, balans va imitatsion modellar keng yoritilgan. Ekonometrik modellar statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash imkonini berishi bilan ajralib turadi. Balans modellar resurslar va natijalar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular asosan makroiqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Imitatsion modellar esa murakkab iqtisodiy tizimlarni turli ssenariylar asosida tahlil qilish imkonini yaratadi [2].

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida iqtisodiy prognozlash masalalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, bozor islohotlari va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida makro va mikro darajadagi prognozlashning o'zaro uyg'unligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaratiladi [3].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlashda qo'llaniladigan konseptual yondashuvlar va modellashtirish usullarini kompleks va tizimli tarzda o'rganish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlashning konseptual yondashuvlari va modellashtirish usullarini o'rganishda kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida iqtisodiy prognozlash va iqtisodiy modellashtirish bo'yicha klassik hamda zamonaviy ilmiy qarashlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi umumilmiy usullar qo'llanildi. Iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda ekonometrik, optimallashtirish va imitatsion modellashtirish usullaridan foydalanilib, makro va mikro darajadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash hamda xulosalarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy tizimlarni prognozlashda makro va mikroiqtisodiy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi va ularning uyg'unligi iqtisodiy qarorlar sifatini sezilarli darajada oshiradi. Makroiqtisodiy darajada prognozlash natijalari milliy iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari — YAIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasi va to'lov balansining kelajakdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, dinamik va tizimli yondashuvlar asosida qurilgan makroiqtisodiy modellar, ayniqsa, vaqt qatorlari tahlili va regressiya usullaridan foydalangan holda, iqtisodiy o'zgarishlarni yuqori darajada aniqlik bilan prognozlashga imkon beradi [4].

Mikroiqtisodiy prognozlash natijalari esa korxona va bozorlar faoliyatini rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot ko'rsatdiki, optimallashtirish va imitatsion modellashtirish usullari orqali korxonalarning ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va foyda ko'rsatkichlari bo'yicha turli ssenariylarni baholash mumkin. Bu mikroiqtisodiy prognozlarning korxonalar darajasida samarali strategik qarorlar qabul qilishda yordam berishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan asosiy tendensiya shundaki, makro va mikro prognozlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Masalan, milliy darajada inflyatsiya va ishsizlik darajasidagi o'zgarishlar korxonalar darajasidagi ishlab chiqarish va narx siyosatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, iqtisodiy tizimlarni prognozlashda bu ikki darajadagi yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash prognozlarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi [5].

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki:

1. Makro va mikroiqtisodiy prognozlashni integratsiyalashgan yondashuv orqali birlashtirish tajribaviy asosda ilgari surildi. Ko'plab ilmiy ishlarda makro va mikro prognozlar alohida o'rganilgan bo'lsa, ushbu tadqiqotda ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi kvantitativ va sifat jihatdan tahlil qilindi.

2. Iqtisodiy modellashtirish usullarining samaradorligi aniqlanib, turli ssenariylarni baholashda optimallashtirish va imitatsion modellarni makroiqtisodiy prognozlar bilan uyg'unlashtirishning amaliy jihatlari namoyon qilindi. Bu yondashuv prognozlarning aniqligini oshirish va iqtisodiy qarorlar sifatini yaxshilash imkonini beradi [6].

3. Tadqiqot mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va korxona darajasidagi strategik rejalashtirish uchun integratsiyalashgan prognozlash mexanizmini ishlab chiqdi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yangi ilmiy va amaliy tavsiyalarni beradi.

Umuman olganda, maqola ilmiy yangilik sifatida makro va mikroiqtisodiy prognozlashni birlashtirish, modellashtirish usullarini uyg'unlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish yo'nalishida muhim hissa qo'shadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2020–2025)¹

Ko'rsatkich / Yil	2020	2021	2022	2023	2024	2025
YAIM o'sish darajasi (%)	1.6	4.5	5.7	6.2	~5.5–6.0*	7.7**
Inflyatsiya (%)	12.87	~10.85	~11.45	~9.96	~9.63***	7.3**
Ishsizlik darajasi (%)	~5.29	~5.36	~4.49	~4.46	~4.49	~6.8****
YAIM (mlrd USD)	66.44	77.34	90.10	101.59	107.19	~114.96*****

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi 5–6 yillik asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini — YAIM o'sish sur'ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi va YAIM nominal qiymatini — aks ettiradi.

YAIM o'sish sur'ati 2020-yilda 1.6% bilan pastroq darajada bo'lgan bo'lsa, 2021–2025 yillarda ijobiy tendensiya saqlanib, 2025-yilda 7.7% ga yetdi. Bu iqtisodiy siyosat va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi natijalarni ko'rsatadi. O'sish sur'atining sekinlashgan yoki tezlashgan davrlari milliy va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi.

Inflyatsiya darajasi 2020–2025-yillarda pasayish yo'nalishini saqladi: 2020-yilda 12.87% bo'lgan inflyatsiya 2025-yilda 7.3% ga tushdi. Bu narxlar barqarorligini ta'minlash va monetar siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasidagi pasayish iste'molchilarning xarid quvvatini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [7].


Ishsizlik darajasi jadvalda nisbatan barqaror bo'lib, 4–6% oralig'ida baholangan. Bu ko'rsatkich mamlakatdagi mehnat bozorining holatini va bandlik siyosatining samaradorligini aks ettiradi. Shuningdek, ishsizlik darajasi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy prognozlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi, chunki ish bilan ta'minlangan aholi darajasi korxonalar darajasidagi ishlab chiqarish va daromadga ta'sir qiladi.

1 Manba: Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) 2024 va 2025-yillar bo'yicha real YAIM o'sish sur'ati va inflyatsiya ko'rsatkichlarini publika qilgan.



YAIM nominal qiymati esa so'nggi yillarda muntazam ortib bormoqda, bu esa iqtisodiyot hajmining oshishi va mamlakatning global bozorlar bilan integratsiyasi natijasidir. YAIMning o'sishi iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi va makroiqtisodiy modellashirish uchun asosiy baza hisoblanadi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlik saqlanmoqda, inflyatsiya va ish bilan ta'minlash darajasi ijobiy tendensiyada, YAIM esa o'sish sur'atini namoyon qilmoqda. Bu ma'lumotlar maqolada ilgari surilgan makro va mikroiqtisodiy prognozlashni integratsiyalashgan yondashuv samaradorligini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi [8] (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2020–2025)

O'zbekistonning 2020–2025-yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini — YAIM o'sish sur'ati, inflyatsiya va ishsizlik darajasini vizual tarzda aks ettiradi.

Jadval va grafik tahlilidan ko'rinib turibdiki, YAIM o'sish sur'ati 2020-yilda 1.6% darajasida bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ijobiy tendensiya kuzatiladi va 2025-yilda 7.7% ga yetadi. Bu mamlakat iqtisodiy siyosati va makroiqtisodiy barqarorlikning oshishidan dalolat beradi.

Inflyatsiya darajasi 2020-yilda 12.87% bo'lib, 2025-yilda 7.3% ga tushgan. Bu narxlar barqarorligi va pul-kredit siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasining pasayishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [9].

Ishsizlik darajasi nisbatan barqaror bo'lib, 2020–2025-yillarda 4–6.8% oralig'ida harakat qilgan. Bu mehnat bozorining holatini va bandlik siyosatining samaradorligini aks ettiradi.

Grafik, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi: YAIM o'sishining tezlashishi inflyatsiya va ish bilan ta'minlash darajasi bilan muvozanatda bo'lishi kerakligi, shuningdek, iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ushbu indikatorlarni hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, rasm tadqiqot natijalarini vizual tarzda tasdiqlab, makro va mikroiqtisodiy prognozlashning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi va maqoladagi tahliliy xulosalarni mustahkamlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy modellashirish usullaridan foydalanish — makro va mikro darajadagi prognozlarni amalga oshirishning eng samarali vositasidir. Ekonometrik modellar asosida olingan makro prognozlarda davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishda, optimallashtirish va imitatsion modellar esa korxona darajasida qaror qabul qilishda muhim amaliy natijalar beradi. Shu bilan birga, tadqiqotdan kelib chiqqan xulosa shuki, prognozlash jarayonida ma'lumotlarning sifatli va tizimli bo'lishi, shuningdek, turli modellarni uyg'unlashtirish — natijalar ishonchligini oshirishning asosiy omillari hisoblanadi [10].

Umuman olganda, olingan natijalar iqtisodiy tizimlarni prognozlash jarayonida konseptual yondashuvlar va modellashirish usullarining samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot, shuningdek, iqtisodiy qarorlarni strategik rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy tizimlarni makro va mikroiqtisodiy darajada prognozlash konseptual yondashuvlar va modellashtirish usullarini samarali uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy qarorlar sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Makroiqtisodiy prognozlash milliy iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari — YAIM o'sish sur'ati, inflyatsiya va ish bilan ta'minlash darajasini aniqlashga xizmat qilsa, mikroiqtisodiy prognozlash korxona va bozorlar faoliyatini rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida makro va mikro prognozlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlanib, ularning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi prognozlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy modellashtirishning turli usullarini (ekonometrik, optimallashtirish, imitatsion) uyg'unlashtirish orqali nafaqat prognozlarning aniqligi oshadi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati ham kengayadi. Shu asosda tadqiqot quyidagi takliflarni ilgari suradi:

1. Davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishda makroiqtisodiy prognozlash natijalarini amaliy rejalashtirishda muntazam hisobga olish, YAIM o'sish sur'ati va inflyatsiya kabi asosiy indikatorlarni tizimli monitoring qilish.
2. Korxona va tarmoqlar darajasida mikroiqtisodiy prognozlarni modellashtirishda optimallashtirish va imitatsion usullardan keng foydalanish, turli ssenariylarni hisobga olgan holda strategik qarorlar qabul qilish.
3. Makro va mikro prognozlar natijalarini integratsiyalashgan holda birlashtirish, shunda mamlakat iqtisodiy siyosati va korxona strategiyalari o'zaro uyg'unlashgan tarzda rivojlantiriladi.
4. Prognozlash jarayonida ma'lumotlarning sifatli va tizimli bo'lishini ta'minlash, shuningdek, yangi modellar va texnologiyalarni joriy etish orqali prognoz aniqligini oshirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, makro va mikroiqtisodiy prognozlashni integratsiyalashgan yondashuv bilan olib borish, modellashtirish usullarini uyg'unlashtirish va amaliy tavsiyalarni hisobga olish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pindyck, R. S., & Rubinfeld, D. L. (2018). Microeconomics. New York: Pearson.
2. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
3. Fridman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. New York: American Economic Review.
4. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). Economics. New York: McGraw-Hill.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Toshkent. <https://stat.uz>
6. IMF. (2025). IMF Country Report: Uzbekistan 2025. Washington D.C.: International Monetary Fund. <https://www.imf.org>
7. Lloyds Bank Trade. (2025). Uzbekistan Economic Context. <https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/economical-context>
8. Kun.uz. (2025). O'zbekiston YAIM o'sish sur'ati va iqtisodiy ko'rsatkichlar. <https://monitor.kun.uz>
9. Spot.uz. (2025). O'zbekistonda ish bilan ta'minlash darajasi va mehnat bozori tahlili. <https://www.spot.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>